




**SURXONDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

The top section of the cover features a background image of an industrial facility with large white storage tanks and a red-and-white chimney. Overlaid on this are semi-transparent blue and green bar charts and line graphs, along with a large, prominent blue and green upward-pointing arrow that spans across the middle of the page.

**SURXONDARYO
VILOYATINING SANOAT
ISHLAB CHIQARISHI**

*2024-YIL YANVAR-MAY
(DASTLABKI MA'LUMOT)*

Tel.: 76-225-65-76


www.surxonstat.uz

Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

(2024-yil yanvar-may oylarida)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024-yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalari tomonidan 3699,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 107,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 90,4 % ni tashkil etdi.



B

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



C

Ishlab chiqaradigan sanoat



D

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash







E





Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da

2023-yil - yanvar-may




2024-yil yanvar-may



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, Ishlab chiqaradigan sanoat – 10,2 % ga o'sishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2024-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 119,0 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,2 % ini tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




yanvar-may

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-may	2024-yil yanvar-may	Farqi +/-
Ko'mir, ming t.	112,9	207,4	94,5
Neft, ming t.	32,1	30,2	-1,9




Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-may	2024-yil yanvar-may	Farqi +/-
Qattiq tuz, ming t.	12,8	10,7	-2,1
Tabiiy qumlar, ming t.	3,6	21,5	17,9

Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so'm

yanvar-may

FHI,% da



103,2

107,4

107,5

2022-y.

2023-y.

2024-y.

2022-y.

2023-y.

2024-y.

2024-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3343,9 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 90,4 % ini tashkil etdi.

2023-yil
yanvar-may


90,5 %

2024-yil
yanvar-may

90,4 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 % ni (2023-yilning yanvar-may oylarida – 0,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 1,0 % (0,4 %), o'rta-quyi texnologiyali – 24,7% (24,5 %) va quyi texnologiyalisi – 74,0 % (65,4 %)ni tashkil etdi.




■ 2023-yil ■ 2024-yil








Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 9,9 % (2023-yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,4 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 1,5 % (2023-yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 119,2 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 51,3 % (2023-yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 112,1 %), mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, ta‘mirlash va o‘rnatish, avtotransport vositalari, treylerlar, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish ulushi – 6,9 % (2023-yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,4 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da






2024-yilning yanvar-may oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 14,4 ming tonna paxta tolasi (2023-yilning yanvar-may oyiga nisbatan 2,1 martaga ga ko'p), 5,5 ming tonna boshqa guruhlariga kiritilmagan suyuq neft yoqilg'isi (mazut) (2,3 m ga ko'p), 0,9 ming tonna lint (9,7 % ga kam), 19,6 ming tonna neft bitumi (8,1 % ga kam) hamda ishlab chiqarilib, kam o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-may	2024-yil yanvar-may	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming t.	6,8	14,4	7,6
Paxta tiviti (lint), ming t.	1,0	0,9	-0,1
Neft bitumi, ming t.	21,3	19,6	-1,7
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	19,5	17,0	-2,5
Yigirilgan bir qavatli, ming t.	3,3	4,3	1,0
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	1,1	1,2	0,1

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-may oylarida metallurgiya sanoati ulushi 0,5 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 165,5 bo'lsa, 2024-yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 1,5 % ni, fizik hajm indeksi esa, 119,2 % ni tashkil etib va ishlab chiqarish hajmi 55,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-may oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 10,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 82,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 9,9 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 104,4 % ga ko'paygan va ishlab chiqarish hajmi 365,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-may oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 96,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 11,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 98,2 % ga kamaygan va ishlab chiqarish hajmi 431,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-may oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 104,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-may - oylari yakuniga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,0 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 236,4 % ni va ishlab chiqarish hajmi 36,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-may oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 41,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 105,5 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-may oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 44,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 111,8 % ga ko'paygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1627,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2023-yilning yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 6,6 % ni, fizik hajm indeksi esa 108,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 7,2 %, fizik hajm indeksi 114,9 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 267,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-may oylari yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 93,0 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2024-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni, fizik hajm indeksi 201,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 22,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish




2023-yilning yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 6,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 74,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,8 % ni, fizik hajm indeksi 73,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 139,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 218,3 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2024-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni, fizik hajm indeksi 80,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 20,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 78,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,4 % ini) tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-may oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 78,5 % ni tashkil etdi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-may	2024-yil yanvar-may	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	102,3	198,5	96,2
Issiqlik energiyasi, ming gkal	13,4	10,2	-3,2
Quyosh elektr stantsiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi, mln kVts	-	1,7	1,7

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 74,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,0 % ini) tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-may	2024-yil yanvar-may	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	3,9	3,5	-0,4
Boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	12,4	24,4	12,0

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 32,0 mlrd. so'm, oqova suvlarini yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 3,5 mlrd. so'm shuningdek, 24,4 mlrd. so'm boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarildi.